

OILADA ZO‘RAVONLIKNING NAMOYON BO‘LISHI HAMDA SHAXS RUHIYATIGA SALBIY TA‘SIRI

Sharopova Lolaxon Erkinjonovna

Namangan viloyati Chust tumani MMTBga qarashli 23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Maqolada oilaviy munosabatlarda zo‘ravonlikning psixologik xususiyatlari va namoyon bo‘lishi shaxs ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatishi, xo‘rlash, jabr-zulm qilish, zo‘ravonlik qilish, ojiz ahvolda qoldirish yoxud o‘ziga bo‘ysundirish, zo‘ravonlik - jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralari qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmat va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik), oiladagi munosabatlarga tahdid soluvchi, uni izdan chiqaruvchi, farzandlar tarbiyasiga salbiy ta’sir etuvchi salbiy omillar xaqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: xo‘rlash, jabr-zulm qilish, zo‘ravonlik qilish, ojiz ahvolda qoldirish, o‘ziga bo‘ysundirish, jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy tazyiq, tazovuz, qadr-qimmat.

KIRISH

Oiladagi zo‘ravonlik - bu bir shaxs tomonidan u bilan yaqin aloqada bo‘lgan odamlarga nisbatan qilinadigan tahdid yoki takroran zo‘ravonlik xatti-harakatlaridir. Ushbu muammo bugungi kunda juda keng tarqalgan va o‘tkir ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Zo‘rlilik va zo‘ravonlik tushunchalari farq qiladi. Qonunchilikni o‘rganish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, zo‘ravonlik tushunchasining salmog‘i og‘irroqdir. Bu harakat odatda ko‘pchilikka nisbatan sodir etiladi va subyektlarning ko‘pligi bilan farqlanadi. Qonunchilikda zo‘ravonlik termini shavqatsizlik, qurol ishlatish va qirg‘in solish kabi tushunchalar bilan birga ishlatiladi. Zo‘rlilik bu majburlash, qo‘rqitish bilan jabrlanuvchining sog‘lig‘i, hayotiga qarshi qaratilgan g‘ayriijtimoiy harakatdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “zo‘ravon, zo‘ravonlik” so‘zlarning umumiy tushunchasi berilgan bo‘lib, u qonunga bo‘ysunmaydigan, birovlariga zo‘rlilik qiluvchi, zulm o‘tkazuvchi zolimlarga xos xatti-harakat, deb tavsiflangan.

Oilaviy zo‘ravonlik – bu zo‘rlilik akti bo‘lib, jahon miqyosidagi statistika va umumiy tendensiyalarga nazar tashlasak, bundan asosan ayollar va bolalar jabr ko‘rayotgani ma’lum bo‘ladi. Lekin bu mutlaq xarakterga ega emas, ya’ni oilada erkak

kishining ham ayoli yoki ota-onaning farzandlar yoxud boshqa oila a'zolari tomonidan ruhiy bosim ostida yashab kelishi kuzatiladi. Bu ham oilaviy zo'ravonlikning bir ko'rinishi sanaladi. Natijada jabrlangan shaxs jiddiy psixosomatik kasalliklar orttirish yoki boshqa ayanchli holatlar ro'y berishi mumkin.

Oilaviy zo'ravonlik faqat bir mamlakat va millatga xos illat emas, u bilan butun dunyo kurashib keladi.

Zo'ravonlik — jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik).

Ta'kidlash joizki, oiladagi munosabatlarga tahdid soluvchi, uni izdan chiqaruvchi, farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi salbiy omillardan biri bu — oiladagi zo'ravonlikdir va ta'sirli maskan oiladir. Burhoniddin Marg'inoniy bu borada: "jamiyatning negizi ham, inson ruhiy-ma'naviy olamining beshigi ham oiladir" [2], - deb ta'kidlagan edi.

Sharq mutafakkirlarining qoldirgan boy ilmiy-madaniy meroslarida o'zbek xalqining oilaturmush qoidalari, undagi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayoni, ayniqsa, er-xotin munosabatlari to'g'risidagi fikr mulohazalar, ta'limotlar mavjud. Mazkur masalalar buyuk allomalar bo'lmish Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Ismoil at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida keng yoritilgan [3].

Zo'ravonliklar aynan oilada sodir etilib, oilada oila a'zosining ixtiyori va erkiga zid ravishda jismoniy kuch ishlatish yoxud ruhiy tazyiq o'tkazish orqali sodir etilishi oila turmush munosabatlari doirasida og'ir turdagi jinoiy qilmishlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Oilada shaxsga nisbatan zo'ravonlik va jabr-zulm qilishda ko'pincha shaxsda tajovuzkor hulq-atvor namoyon bo'ladi.

Oilada turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan zo'ravonlik yuzaga kelishida oilada milliy-urf odatlarning yo'qligi hamda islomda belgilab berilgan ta'lim va tarbiyaning sustligi sabab bo'ladi. Shariatda zo'ravonlik bir necha turlarga bo'lingan. Jumladan, "Hidoya" asarida ushbu turlar tahlil etilgan:

- qasddan o'ldirish;
- qasdga o'xshash o'ldirish;
- beqasd (bilmay) o'ldirish;
- beqasdga (bilmasdan) o'xshash o'ldirish; – sababli qotillik [4].

Oiladagi zo'ravonlik oqibatida shaxsning hayoti, sog'lig'i uchun xavfli ahvolda turli darajada tan jarohati yetkazish, jabr-zulm qilish, kaltaklash, qiynash, og'ir ahvolga solish kabi omillarning sabab sharoitlari, tasnifi, xulqda moyillik xususiyatlarini ilmiy amaliy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Oiladagi zo‘ravonlik shaxsga qarshi jismoniy kuch ishlatish, kaltaklash, zo‘rlash [5], majbur qilish, ruhiy ta‘sir ko‘rsatish [6], jinsiy zo‘ravonlik qilish, nomusga tegish [7], kabi xatti-harakatlarni sodir etishda namoyon bo‘ladi. Oiladagi zo‘ravonlik asosan jismoniy yoki ruhiy ko‘rinishlarda sodir etiladi. Psixologik zo‘ravonlik ko‘p hollarda qo‘rqitish (bir shaxsni ikkinchi bir shaxs tomonidan qo‘rqitib bo‘ysundirish, o‘zini ko‘rsatish yoxud o‘ziga qaram qilish) shaklida ifodalanadi. Psixologik zo‘ravonlik asabiylashishning mahsuli bo‘lib, bir shaxsni qo‘rqitib o‘ziga bo‘ysundirish, shaxsning «ixtiyoriga zid» harakatlarni amalga oshirish yoki «tazyiq o‘tkazish» maqsadlarida qo‘llanilishi mumkin. Misol uchun, ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushurishga majburlash, ayolni jinsiy aloqa qilishga majburlash, haqorat qilish jinoyatlari aynan oila turmush munosabatlari doirasida sodir etilib, bunda asosan ayollarning zo‘ravonlikdan jabr ko‘rish namoyon bo‘ladi.

Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan zo‘ravonliklarning asosiy qismi ruhiy (psixik) zo‘ravonliklarni tashkil etadi. Oilada sodir etiladigan zo‘ravonliklar oqibatida shaxsga ruhiyatiga (psixik) ta‘sir ko‘rsatish, qo‘rqitib bo‘ysundirish, majburlash, xo‘rlash, jabr-zulm qilish, zo‘ravonlik qilish, sirini fosh etishni aytib qo‘rqitish, uydin haydab yuborishga xarakat qilish, bolalarni kaltaklab alamini ulardan olish, ojiz ahvolda qoldirish yoxud o‘ziga bo‘ysundirish shakllarida namoyon bo‘ladi.

Oiladagi zo‘ravonlikning kuch ishlatish shakli jabrlanuvchiga nisbatan oila a‘zolari, yaqinlari va boshqa shaxslar tomonidan urish, kaltaklash, yashash joyida sog‘lom hayot tarzidan mahrum qilish hamda uning ruhiy salomatligining buzulishi va qadr-qimmatiga zarar yetkazilishida namoyon bo‘ladi [8].

Oilaviy munosabatlarda bolaga tahdid soluvchi harakatlar sifatida “ruhiy zo‘ravonlik shantaj, tahdid, haqorat qilish va voyaga yetmanganning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa ko‘rinishdagi ruhiy zo‘ravonlik vositasida bolaning normal rivojlanishi va uning ruhiy salomatligiga ta‘sir etish” [9], tushuniladi.

Oiladagi zo‘ravonlik ko‘pincha ruhiy (psixik) zo‘ravonlik ko‘rsatish shaklida namoyon bo‘lib, shaxsning ruhiyatini ezish, unga turli jismoniy og‘riqlarsiz azob berish, tahdid qilish, qo‘rqitish shaklida namoyon bo‘ladi.

Oilada sodir etiladigan zo‘ravonlikda bolalarni kaltaklash, xo‘rlash, zulm o‘tkazish, o‘ldirish kabilar, masalan, chaqaloqlarning o‘ldirilishi, shafqatsiz va tahqirlovchi jazolashlar, beparvolik va tashlab qo‘yish, shahvoniy tahqirlash va bolalarga qarshi zo‘ravonliklar oilada sodir etiladi [10].

Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, oiladagi zo‘ravonlik ko‘pincha tajovuzkorlik xususiyatlari bilan bog‘liq holda sodir etilishini ko‘rish mumkin.

Zo‘ravonlikning manbai va tabiatini aniqlash ushbu muammoni o‘rganishning eng muhim jihatini ifodalaydi. Ushbu masala borasida shaxsning bunday hatti-harakatlarni sodir etishi biologik jihatdan taqozo qilingan va u nasldan naslga o‘tishi

mumkinligini, shuningdek shaxsdagi tajovuzkorlik xususiyalari ko'p jihatdan irsiy xususiyatlarga bog'liq ekanligini e'tirof etishadi.

Oiladagi zo'ravonlik ko'pincha tajovuzkorlik xususiyatlari bilan bog'liq holda sodir etilishini insoniy nizolar mahsuli, deb aytish mumkin.

Inson ruhiyatidagi buzilishlar zo'ravonlikka moyillikning kuchayishiga sabab bo'lishi aniqlangan. Psixik buzilishlarda shaxsda tajovuzkor hulq-atvor shakllanishi, u esa turli hissiy holatlarda, ya'ni qasos, g'arazli maqsad, ko'rolmaslik yoki nafrat oqibatida ham namoyon bo'ladi. Bugungi kunda oila turmush munosabatlari doirasida sodir etilayotgan jismoniy zo'ravonlikning quyidagi ko'rinishlari sodir etilmoqda: urish, do'pposlash, turtib yuborish, sochidan tortib sudrash, qiynash, chimchilash, tepish va boshqa harakatlar bilan og'riq berish, narsalarni u yoqdan bu yoqqa otish, pichoq bilan qo'rqitish yoki jarohatlash, uydan chiqishiga jismoniy qarshilik ko'rsatish.

Psixologik zo'ravonlik jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo'rlik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma'lumotlarni oshkor etish va hokazolar bilan qo'rqitish shaklida sodir etiladi.

Oiladagi ruhiy va jismoniy zo'ravonlik bir-birini taqozo etuvchi ba'zida og'ir oqibatlarining kelib chiqishini taqozo etishi bilan dolzarb ahamiyatga egadir. Bunda qasddan oilaning bir a'zosi tomonidan boshqa a'zosining sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish, ruxiyatiga ta'sir etish, baqirish, haqorat va tuhmat qilish, obro'sizlantirish, doimiy tanqid qilish, his tuyg'ularini so'ndiruvchi harakatlar qilish, qo'rqitish, qarindosh urug'lar orasida sharmanda qilish, uydan ketishini aytib qo'rqitish bilan namoyon bo'ladi. Bu shaxsda ruhiy zo'rliqishni keltirib chiqarib, o'z joniga qasd qilishgacha olib kelishi mumkin.

Oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda hayotda iqtisodiy zo'ravonlikning quyidagi ko'rinishlari sodir etilmoqda: asossiz pul bermaslik, nimaga qancha pul sarflanishini nazorat qilish, o'zi topgan pulni tasarruf etish huquqidan mahrum etish; oila byudjetidan foydalanish huquqidan mahrum qilish holatlari mavjud.

Oilada sodir etiladigan zo'ravonlikning boshqa ko'ri-nishlari, xususan bolalarga zulmkorlik qilish, bolani onadan ajratib qo'yish, erkak kishining o'z hukmronligini o'rnatishga qaratilgan qilmishlarni e'tiborga olish lozim.

Zo'ravonlikning yana bir shakli e'tiborsizlik, beparvolik bo'lib, u jismoniy nuqsonli, nogiron, ruhiy kasal bolalarga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Zo'rlikning ushbu shakli o'ziga qaram bo'lgan shaxsning qarovsiz qoldirish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, tibbiy yordam, parvarishlashga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini qondirishni tizimli ravishda xohlamaslikda namoyon bo'ladi. Bolaning manfaatlari va ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (zo'ravonlik) ham harakat ham harakatsizlik yo'li bilan amalga oshirilishining yorqin misolidir.

Oiladagi zo‘ravonlikni quyidagilarga ajratish mumkin:

- ayollarga nisbatan zo‘ravonlik;
- bolalarga nisbatan zo‘ravonlik;
- qariyalarga nisbatan zo‘ravonlik;
- qarindoshlarga nisbatan zo‘ravonliklar.

Demak, zo‘ravonlik – xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik).

Shuni anglash kerakki, hatto psixologik yoki hissiy zo‘ravonlik asosida amalga oshirilgan harakatlar ham qadim zamonlardan beri jiddiy jinoyat sifatida qabul qilingan. Bu haqiqatni bilmaslik oilaviy dramalarga stereotipik munosabat shaklida xizmat qiladi, unda psixologik zo‘ravonlik tez-tez uchrab turadi, ammo jabrlanuvchi bu nima ekanligini ham bilmaydi.

Oiladagi zo‘ravonlikning bu shakli qanday namoyon bo‘lishi mumkin? Bular axloqiy tahdid yoki qo‘rqitishdir. Bu, shuningdek, jabrlanuvchiga noma’qul yoki bema’ni so‘zlarni ishlatib, uni o‘zi uchun yoqimsiz bo‘lgan turli xil axloqiy sahnalarni tomosha qilishga majburlash orqali ham namoyon bo‘lishi mumkin. Uy-ro‘zg‘or buyumlari yoki mulklarini zo‘rlilik bilan tortib olish, keyinchalik ularni namoyishkorona yo‘q qilish zo‘ravonlikning bir turini anglatadi. Tajovuzkor jabrlanuvchining holatiga uning rozilgisiz doimiy psixologik ta’sir ko‘rsatadi, bu uning hayotiga ta’sir qilishi aniq. Rivojlanayotgan jamiyatda biron sababga ko‘ra oiladagi bunday xatti-harakatlar odatiy narsa sifatida qabul qilinishi vaziyatni yanada og‘irlashtiradi, chunki bunday harakatlar uyda ham, jamoat joylarida ham sodir etilishi mumkin.

Oiladagi zo‘ravonliklarning sabablari turli-tuman bo‘lib, ular turli xil omillarning birgalikdagi ta’siri tufayli vujudga keladi. Zo‘ravonlik xatti-harakatlari jamiyatning ijtimoiy-madaniy tabiati bilan belgilanishi mumkin deb ishoniladi. Mazkur munosabatlarni qurish uchun yagona mumkin bo‘lgan va tashqi omillar bilan mustahkamlangan ta’lim bilan uyg‘unlashgan oilaviy munosabatlarning mohiyati haqidagi stereotipik g‘oyalarning natijasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shuningdek, suiiste’mol qilish insonning shaxsiy hayotiy tajribasi natijasidir, uning asosida nikohdagi xatti-harakatlarning stereotipli modeli yaratiladi.

Oiladagi zo‘ravonlik sabablari shaxsning bolaligidan kelib chiqishi mumkin. Misol uchun, agar bola bolaligida biron bir shikast yetkazgan bo‘lsa, salbiy tajribani boshdan kechirgan bo‘lsa, unda u zaif qarindoshlariga nisbatan o‘zining salbiy ichki komplekslarini namoyish qilishi mumkin. Ijtimoiy va shaxsiy norozilik hissiyotlari bizni bu holatlarga qarshi kurashishga qodir bo‘lmagan yaqin odamlar hisobiga o‘tkazilishi bilan birga uydagi ahvolimiz uchun doimiy zarar ko‘rish vaziyatiga majbur

qiladi. Jismoniy xususiyatga ega bo'lgan oiladagi zo'ravonlik bir avlod uchun takrorlanishi mumkin.

Shunday qilib, masalan, bolaligida uning manfaatlari suiiste'mol qilingan bola balog'at yoshida ushbu xatti-harakat modelini oilaviy munosabatlarga o'tkazishi mumkin bo'ladi, ya'ni bolaligimda menga nisbatan shunday harakatlar qilgan bo'lsalar, demak, voyaga yetganimda, men ham boshqalarga nisbatan aynan shunday harakatlarni amalga oshirish imkoniyatiga egaman, degan tushuncha paydo bo'ladi. Zo'ravonlik psixologiyasi uning o'ziga va shaxsiy e'tiqodiga tegishli bo'lib qolishi mumkin.

Oiladagi zo'ravonlik shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, haddan tashqari rivojlangan dominant shaxsiy xususiyatlar va o'z vaqtida tegishli ma'lumot bilan qoplanmaydigan fe'l-atvor natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bugungi kunda ichki zo'ravonlik tabiatiga oid harakatlarning kelib chiqish sabablari to'g'risida yagona fikr yo'q. Biror kishida ruhiy kasalliklarning mavjudligi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarining ta'siri, ijtimoiy tashkilotning ta'siri va boshqalarni o'z ichiga olgan ko'plab nazariyalar mavjuddir.

Ruhiy zo'ravonlik xatti-harakatlarining o'sishi bilan quyidagi ruhiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikni topdilar: to'g'ma his-tuyg'u, xafagarchilik, tajovuzkorlik, alkogolizm va psixopatologiya ustidan nazoratni tobora zaiflashib borishini aniqladilar. Sosiologlarning fikricha, jamiyatda qabul qilingan ba'zi madaniy me'yorlar zo'ravonlikka olib keladi, masalan, jamiyatning patriarxal ijtimoiy tuzilishi, bu erkaklar ustunligini qo'llab-quvvatlaydi va ayollarning xizmatkor mavqeyini belgilab beradi.

Oiladagi zo'ravonlik qattiq hayajon, ruhiy zarbalarning mavjudligi bilan chambarchas bog'liq. Shunday qilib, masalan, oilada keskinlikning kuchayishiga olib keladigan va shafqatsizlikka olib keladigan omillar orasida: bolalarni tarbiyalashga har xil qarashlar, yaqin munosabatlar, homiladorlik, moddiy muammolar, ishsizlik, uzoq muddatli tibbiy yordamga ehtiyojni sezish hollari keskin vaziyatlarga poydevor bo'lishi mumkin. Doimiy ravishda mavjud bo'lgan dilni tirnash xususiyati qisman hal qilinmagan muammolar haqida surunkali xavotir, istaklarning imkoniyatlarga nisbatan mos kelmasligi va jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshi talablar bilan bog'liqdir.

Oiladagi zo'ravonlik muammosi xavflidir, chunki bu odamning psixologik rivojlanishi, jismoniy salomatligi va o'zini o'zi qadrlash hissiyotiga tuzatib bo'lmaydigan ma'naviy, ruhiy va jismoniy zarar yetkazadi.

Zo'ravonlik harakatlarining oilada yuz berishi zo'ravonliklarning eng keng tarqalganidir. Ko'pincha, o'zini namoyon qilgan shaxslar, ular qurbonga aylanib qolganliklarini tushunishmaydi.

Psixologik zo‘ravonlik ko‘pincha hissiy deb ataladi. Ko‘pincha ayollar va bolalar oiladagi zo‘ravonlik qurbonlaridir. Biroq, hatto insoniyatning zaif yarmi ham oilaviy munosabatlarda psixologik tajovuzkor rolini o‘ynashi mumkin. Zo‘ravon oilaviy harakatlarning shakllaridan biri jabrlanuvchiga nisbatan qo‘pol so‘zlarni ishlatishi, shantaj va tahdid, uy jihozlarini yo‘q qilishi, dahshatli voqyealarni tomosha qilishga majburlashi va hokazolarni qamrab oladigan ma‘naviy qo‘rqitish va tahdidlarni amalga oshirishi mumkin.

Shunday qilib, oiladagi psixologik zo‘ravonlik, shaxsning ruhiy jarayonlariga, xulq-atvoriga yoki uning jismoniy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi, uning roziligisiz, shaxslararo aloqa vositalaridan zarar keltirish uchun foydalanish deb ataladi. Psixologik ta’sirning umumiy vositalariga tahdid, haqorat va ruhiy tazyiq kiradi.

Ko‘pincha, zo‘ravonlik xatti-harakatlari sodir bo‘lganda, jabrlanuvchi bundan xabardor bo‘lmasligi mumkin. O‘ziga nisbatan zo‘ravonlik harakatlari qilinayotgan shaxs, ular normadan oshib ketayotganini tushunmasligi mumkin. Vaziyat, shuningdek, g‘azab hujumlari o‘rtasidagi davrda, "psixologik zo‘rlash" o‘zini g‘amxo‘r, yumshoq va mehribon sherik sifatida ko‘rsatishi bilan yanada kuchayishi mumkin.

Zo‘ravonlik qurbonlari ko‘pincha tushkunlikka tushadilar, ular bezovtalanishga moyil va ko‘pincha o‘z joniga qasd qilish fikrlariga berilib ketishadi. Zo‘ravonlik qurbonlari bo‘lgan odamlar, asosan, o‘zini o‘zi salbiy tomondan his qiladi va o‘ziga nisbatan ishonchsizlik shubhasi bilan qaraydilar. Ularda doimiy ravishda hatarli munosabatlardan qo‘rqish hissiyotlari va olamdan ko‘z yumish xohishlari asta-sekin shakllanib boraveradi va oxir oqibat bir kuni ular o‘zlarining joniga qasd qilishgacha borishlari mumkin. Boshqacha variantni olib ko‘rsak doimiy kamsitish ayolni boshqa erkak bilan intim munosabatlar o‘rnatishiga majbur qiladi va bu munosabatlar asosida eri bilan janjal qilish yoki uydan chiqib ketish vaziyatini yuzaga keltiradi. Er unga nisbatan hiyonat qilgan ayolini affektiv holatda o‘rib o‘ldirib qo‘yish hollarini ham hisobga olishimiz kerak.

Zo‘ravonlik psixologik harakat sifatida tavsiflanadigan odatiy xatti-harakatlar qatoriga - xo‘rlashni, e’tiborsizlikni, o‘z sherigini begona odamlar o‘rtasida masxara qilish, sherikning fikri va uning ishiga beparvolik; to‘liq va jiddiy nazorat, oila va do‘stlar bilan har qanday bo‘lar bo‘lmas aloqalar haqida o‘lim bilan ogohlantirish; kim bilan do‘st bo‘lish kerakligi, do‘stlar bilan qayerda uchrashish kerakligi haqida fikrlarni kiritish; sherikga ruhiy bosim o‘tkazish, asossiz ayblovlar, qichqiriqlar, bolalardan ajratib qo‘yish, pul yoki boshqa moddiy va nomoddiy imtiyozlar; tahdidlar, tajovuzkor xatti-harakatlar, sherikning narsalarini yo‘q qilish; zarar yetkazish uchun o‘z aybini rad etish, ikkitomonlama - zolim oiladagi sherik, omma oldida do‘stona, odobli odam sifatida o‘zini ko‘rsatishdan iboratdir.

Psixologik zo‘ravonlik jamiyatda juda keng tarqalgan hodisa. Ammo ko‘pincha bunday xatti-harakatlarning qurboni yonida yashaydigan odamlar zo‘ravonlik harakatlarini sezmaydilar. Buning sababi, qurbonlar bunday harakatlarni ularga nisbatan sodir etilganini tan olishdan uyalishadi va boshqa kimsalarga bu harakatlar to‘g‘risida shikoyat qilishdan qo‘rqishadi.

Oiladagi psixologik zo‘ravonlikni tan olish qiyin vaziyat deb hisoblanadi va buni isbotlash yanada qiyin.

Oiladagi zo‘ravonlik muammosi jins (gender) bilan tavsiflanadi. Ko‘pincha oiladagi zo‘ravonlik ba’zi madaniyatlarda keng tarqalgan erkaklarning tajovuzi va tajovuzining natijasidir.

Ko‘pincha oilada ayolga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik bolali bo‘lgan barqaror nikohda, ya’ni normal deb hisoblanadigan oilaviy munosabatlarda ro‘y beradi. Oiladagi zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayollar haddan tashqari sabr-toqat va sherigini ko‘p marta kechirishga tayyor. Bunday sabrtoqat va kechirim bolani otasiz qoldirishni istamasligi, eriga iqtisodiy qaramlik, unga achinish, jamiyatning hurmatini yo‘qotish qo‘rquvi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni kuzatsak, statistik ma’lumotlardan ko‘rinadiki, turli yoshdagi bolalar oiladagi zo‘ravonlikka duch kelishadi: 77% hollarda bolalar ota-onadan, 11% - boshqa qarindoshlaridan, 2% - yaqin qarindoshlari bo‘lmagan odamlardan, masalan, enaga yoki o‘gay ota-onadan azob chekishadi.

Kichik yoshdagi bolaga nisbatan zo‘ravonlik, ota-onalar yoki boshqa kattalar tomonidan bolani kaltaklash, har xil haqoratlash, tahqirlash, og‘ir tan jarohati etkazish, jismoniy shikast etkazish va bolaga jarohat etkazishni anglatadi. Zo‘ravonlikning quyidagi toifalari ajratiladi: beparvolik, hissiy bosim, jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik.

Parvarishning etishmasligi bolaga tibbiy yoki ruhiy yordam berishdan bosh tortish, uydan chiqarib yuborish, ovqatlanishni to‘xtatish, maktabni o‘tkazib yuborishga ruxsat berish, bolani mutlaq nazoratidan mahrum qilish, maktab faoliyatida ishtirok etishni taqiqlash, maktabda o‘qish uchun zarur narsalarni bermaslik va h.k.

Ayrim hollarda, oilada bolaga nisbatan jismoniy jazolash qo‘llanilmasligi mumkin, lekin ularda ruhiy bosim o‘tkazish, uni butkul nazorat qilish va bolaning fikrini inobatga olmasdan, maktab o‘qituvchisi bilan birgalikda xulqini qoralash. Tashqi tizimlar (tashkilotlar) ta’siriga tushib, ular bilan birgalikda ish olib borish, oilada xavotir darajasi bo‘lgan hollarda ko‘p kuzatiladi. Bunday hollarda, oila a’zolarida o‘z mas’uliyatlarini tashqi tizimga (shaxslarga) o‘tkazish niyatini paydo bo‘ladi.

Oilada sodir etiladigan zo‘ravonliklarning kelib chiqishiga ko‘pgina holatlarda jabrlanuvchining xulqi ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundaylarga muntazam ravishda dag‘-dag‘a qilish, haqoratlash, nomaqbul laqablar bilan chaqirish va og‘zaki

zo‘ravonlikning boshqa ko‘rinishlari, shuningdek, inson sha‘ni va qadr-qimmatini yerga urish, yakka-latib qo‘yish va histuyg‘ularni tan olmaslik kabilar sabab bo‘ladi.

Bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga ruhiy tazyiq o‘tkazish, ya‘ni unga laqab qo‘yish, uni yakka-latib qo‘yish, fikriga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish, uni rad etish yoki umuman e‘tiborga olmaslik, do‘q-po‘pisa bilan qo‘rqitish, yerga urish, kamsitish, uning hatti-harakatlari ustidan kulish va asabni buzuvchi so‘zlar bilan muomala qilish kabilar zo‘ravonlikning sodir etilishida asosiy rol o‘ynaydigan ma‘naviy-ruhiy xususiyatlar hisoblanadi.

Zo‘rlik hukm suradigan oilaviy muhitda doimiy ravishda zo‘ravonlik ro‘y berishini kutish natijasidagi doimiy qo‘rquv va tashvish, u ro‘y berayotganda esa og‘riq, xo‘rlanish va qo‘rquv, nisbatan kattaroq yoshdagilar guruhlarida esa, ota-ona tomonidan inkor qilinganlik tufayli yolg‘izlik, ishonchsizlik va ba‘zan o‘z-o‘zidan nafratlanish kabilar mavjud bo‘ladi.

Oilaviy zo‘ravonlik holatiga uchragan xotin-qizlar yoki bolalarning huquqiy hatti-harakatlari qanday bo‘lishi kerak deganda, birinchi navbatda, ular oila – qo‘ni-qo‘shnilar - maxalla – huquqni himoya qiluvchi organ tizimida murojaat qilib yordam olishlari mumkin. Ya‘ni ular birinchi navbatda mahalla va profilaktika inspektori yordamiga tayanib, zo‘ravonlik bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarni oldini olishlari yoki uni to‘liq bartaraf etishlari mumkin bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oilada zo‘ravonlik erkakga, ayolga, bolaga va oilaning boshqa a‘zolariga nisbatan zulmkorlik, tajovuzkorlik ko‘rinishlardagi munosabatda bo‘lishi achinarli holdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Т.: 2006. Б.165.
2. Файзиева М., Жабборов А. Оилавий муносабатлар психологияси. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2007. –Б. 7.
3. Ражабова М. Шариатда жиноият ва жазо. Монография: Т.: 1996. –Б. 76;
4. Бурхониддин Марғиноний. Ҳидоя. Жилд 2. – Қозон 1886. “Россия босмахонаси” –Б. 625.
5. Шаропов Р.Д. Уголовно-правовое характеристика физического насилия:
6. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. –М., 1999. –С. 4-5.
7. Гребёнкин Ф.Б. Уголовно-правовое значение психологического насилия в преступлениях против собственности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. –М., 2004. –С. 6.

8. Мощицкая Е.Ю. Виктимологическое характеристика сексуального насилия несовершеннолетних: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. –М., 2004. –С. 24.
9. Назаров А. Оила-турмуш муносабатларида зўравонликни олдини олиш муаммолари. // Davlat va huquq. –Т., 2004, №4 (20) –Б. 44.
10. Колмакова О.С. Преступления, посягающие на права ребенка в сфере семейных отношений текст автореферата и тема диссертации по праву и юриспруденции: преступления, посягающие на права ребенка в сфере семейных отношений: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. –М., 2015. –С. 8.
11. Ерусланова Р.И, Милюхин К.В. Насилие в семье. Учебное пособие. М. 2010. С.46.